

# **Uzbekistan Airways Tokioga aviaqatnovlarni tiklamoqda**

**2023 21 Fevral**

2023-yilning 13-aprelidan boshlab Uzbekistan Airways O'zbekiston va Yaponiya o'rtasida muntazam aviaqatnovlarni yo'lga qo'yadi. Kunchiqar mamlakatga to'g'ridan-to'g'ri parvozlari har hafta payshanba kunlari amalga oshiriladi. Toshkent-Tokio yo'nalishidagi aviachiptalar narxi 8 412 336 so'mdan, Toshkent - Tokio - Toshkent yo'nalishida esa 14 852 305 so'mdan boshlanadi.

Aviachiptalarning taqdim etilgan narxlari 2023-yil 21-fevral holatiga ko'ra amal qiladi.

Aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy [www.uzairways.com](http://www.uzairways.com) sayti orqali 3% chegirma bilan, shuningdek, "UzAirways" mobil ilovasi, Uzbekistan Airways Sales orqali yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilishingiz mumkin.